

TILNING GENDER XUSUSIYATLARI TADQIQI

Gulsanam To‘lanboyeva Azizjon qizi

ingliz tili o‘qituvchisi

Roziqova Gulbahor Zaylobidinovna

filologiya fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8191336>

Annotatsiya

Gender lingvistikasi qanday soha? U o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi? Bu savollarga javob gender tushunchasiga oydinlik kiritishdan boshlanadi. Gender umumiy nuqtayi nazarga ko‘ra insonlarni biologik jihatdaan farqlovchi jins tushunchasi. Tilshunoslikdagi jins kategoriyasi aynan shu biologik jins tushunchasi asosida shakllangan.

Annotation

What sort of field – Gender linguistics? What includes itself ? The answer for these questions commences with the clarification of the gender concept. Gender, due to the general overview, is the biological difference between people. The gender category of linguistics was formed based on that biological sex.

Kalit so‘zlar

Lingvistika, jins, gender lingvistikasi, ayol, erkak, lingvokulturologiya, til va jins bog‘liqligi.

Key words

Linguistics, gender, gender linguistics, female, male, linguoculturology, language and gender dependence.

Gender lingvistikasi yoki tilshunoslikda genderologiya yo‘nalishi, so‘ngi paytlarda qaynoq muhokamalarga sabab bo‘layotgan mavzuga aylanib ulgurdi. Ushbu sohada ko‘plab jamiyatshunos va tilshunos olimlar, hamda psixologlar bir qator ilmiy ishlar amalga oshirdilar va bu jarayon hamon davom etmoqda. Gender lingvistikasi qanday soha? U o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi? Bu savollarga javob gender tushunchasiga oydinlik kiritishdan boshlanadi. Gender umumiy nuqtayi nazarga ko‘ra insonlarni biologik jihatdaan farqlovchi jins tushunchasi. Ushbu “gender” atamasi 1968-yil Kaliforniyalik olim **Stoller** tomonidan fanga kiritilgan. Umumiy qarashlarga ko‘ra tabiatan ikta jins: ayol va erkak jinsi mavjud bo‘lib, hozirgi rivojlangan dunyoda qo‘shirnoq ostidagi uchinchi jins – “ikki jinslilik, transjins” (LGBT – lesbian gay bisexual transgender) kabi tushuncha ham paydo bo‘ldi. Tilshunoslikka jins tushunchasining qanday aloqasi bor degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ma‘lumki,



tilshunoslik, til, adabiyot bularning barcha barchasi inson omili bilangina mavjud tushunchalar sanaladi. Ularning hech biri inson omilisiz to'laqonli o'z missiyasini bajara olmaydi. Tilning til sifatida vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi, tilshunoslikning fan sifatida o'rganilishi va uning xizmati faqat inson uchun. Masalan, lingvistika va adabiyotning o'lmas durdonalari asrlar davomida barhayot ekanligining sababi ham insoniyat. Avloddan avlodga muntazam ravishda insonlar tomonidan umrboqiy meros sifatida qoldirilib, boyitilib, asrab kelinmoqda. Ushbu asarlar, yoki bugungi kunning zamonaviy asarlari bularning barchasida gender va uning ayni xususiyatlari mavjud. Ushbu xususiyatlar avvalo tadqiqot jarayonida

- jins nuqtayi nazaridan ya'ni u ayolmi yoki erkak
- zamon: o'tmish, bugungi kun, yoki fantastik asarlardagi kelajak
- makon: qaysi davlat, millat yoki madaniyat ekanligiga qarab o'rganiladi.

Ularning o'xshash jihatlari, farqli tomonlari va shu kabilar tahlil va tadqiq etiladi. Ya'ni ma'lum bir til vakillarining til xususiyatlari jins tushunchasiga ko'ra qay darajada boy yoki aksincha ekanligi ustida tadqiqotlat o'tkaziladi, ma'lum bir vaqt davomida qay darajada o'zgarishlar amalga oshdi, bular ijobiymi yoki salbiy? Til va jins o'rtasida bir qancha keskinliklar yoki umumiy munosabatlar, bular avvaldan mavjud bo'lganmi yoki zamonaviy tilshunoslikning hosilasimi? Shu kabi savollarga atroflicha javoblar faqat tilshunoslikning yoki genderning o'zidan kelib chiqmaydi, balki ko'plab sohalarni qamrab oladi, masalan:

- amaliy tilshunoslik
- lingvistik antropologiya
- madaniyatshunoslik
- lingvokulturologiya
- psixologiya
- sotsiolingvistika
- feministik psixologiya
- stilistika kabilar.

Uslubiy nuqtayi nazardan yagona qolip yoki metod mavjud emas, gender lingvistikasi umumiy holatda "sochma" usullarning umumiy jamlanmasi yordamida o'rganiladi. Masalan:

- Diskursiv uslub. Bizga ma'lumki, diskurs asosan ijtimoiy va sotsial mavzularni bahs va muhokama qilishni qamrab olib, til va undagi gender tushunchasi ayni ushbu sohaning qaynoq mavzularidan hisoblanadi. Muhokamalar vositasida umumiy va xususiy, ijobiy va salbiy fikrlar yig'ilib umumiy xulosalar qabul qilinadi.



- Etnometodologik uslub. Ya'ni oradan o'tgan asrlar va bir qancha silsilalarga qaramasdan, bashariyat asliyatni, o'zlikni qay darajada saqlab qolganliklarini tahlil qiladi. Vaqtlar o'tib dunyoning turli jamiyatlarida ayollik sifatleri degradatsiyaga uchradimi yoki elevatsiyaga. Erkaklik fazilatlarichi? Qay darajada o'zgarishlarni boshidan o'tkazgani tadqiq etiladi.
- Eksperimental uslub. Tajribalar asosida.
- Pozitivistik. Ijobiy nuqtayi nazardan.

Dastlab **Susan Sper** til, jins va ular orqali ifodalanuvchi tushuncha va mafkuralarni nazariy, amaliy va siyosiy jihatdan ta'riflab, tushuntirib o'tgan. Qaysi zamon, makon yoki millat bo'lishidan qat'iy nazar, albatta jins tushunchalari, ularga xos bo'lgan sifatlar asarlarda mavjud bo'lishi, busiz mutlaqo iloji yo'q ekanini ta'kidlagan.¹ Buning boisi shundaki, asarda bir dona bo'lsa ham shaxs mavjudmi, unga xos elementlar uchrashi ham muqarrar. Shunday qilib, amalga oshirilgan va oshirilayotgan tadqiqotlar natijasi o'laroq, 2 ta umumiy xulosaga kelish mumkin:

- Gender – jins biologik xususiyatlarni aks ettiruvchi tushuncha.
- Gender – jins ijtimoiy tushuncha.

Ushbu tushunchalar juda ham ko'plab olim va tadqiqotchilarning bahs-munozaralarining asosiy mavzusi bo'lib kelmoqda. "Gender" tushunchasi fanga Stoller tomonidan fanga kiritgan bo'lsa, undan keyin ushbu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar boshlandi. Masalan, lingvistika va sotsiolingvistikada gender tushunchasini o'rganish, tahlil etish 1975-yildan Robin Lakofning "Language and Woman's Place" (Til va ayollarning mavqeyi, shartli tarjima) asari bilan boshlandi. Shu kabi dastlabki tadqiqotlar Deborah Tannen, Penelope Eckert, Janet Holmes, Mary Bucholtz, Kira Hall, Deborah Cameron, Jane Sunderland kabi olimlar tomonidan ham amalga oshirildi. Sohadagi dastlabki tadqiqotlar lingvistika, feministik nazariya va siyosiy tajriba sohalarining chorrahasida amalga oshirildi. Bunday izchil o'rganishning eng dastlabki sababi 1970-1980-yillardagi feministik harakat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Speer, Susan (2005). "Introduction: feminism, discourse and conversation analysis". In Speer, Susan A. (ed.). Gender talk: feminism, discourse and conversation analysis. London New York: Routledge. pp. 7–8. ISBN 9780415246446.

¹ Speer, Susan (2005). "Introduction: feminism, discourse and conversation analysis". In Speer, Susan A. (ed.). Gender talk: feminism, discourse and conversation analysis. London New York: Routledge. pp. 7–8. ISBN 9780415246446.





2. Mary Bucholz, "Editor's Introduction", Language and a Woman's Place: Text and Commentary, Oxford University Press, 2004, ISBN 0-19-516-757-0, pp. 11–13.
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Robin_Lakoff
4. Lang. Soc. 2, 45 – 80. Printed in Great Britain. Language and woman`s place. Robin Lakoff.
5. Spender, Dale. (1985). Man-made language (2nd ed.). London: Routledge & Kegan Paul. ISBN 0710203152. OCLC 12072141
6. In Living Language (p. 222), George Keith and John Shuttleworth.
7. Gulsanam To'lanboyeva. Lingvokulturologiya o'rganilish tarixi. Science and innovation. International scientific journal. Volume I. Issue 6. UIF-2022: 8.2 | issn: 2181-3337.

